



UDK:91.2

**Davronbek ABDIMITILOV,**  
*Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi*

*DSc, professor I.Siddiqov taqrizi asosida*

#### DAVLAT XIZMATLARI: MANFAATLAR UYG'UNLIGI VA IJTIMOIIY TARAQQIYOT

Annotatsiya

Mazkur maqolada davlat xizmatlari tizimining ijtimoiy taraqqiyot jarayonidagi o'rni, uning samaradorligi va manfaatlar uyg'unligini ta'minlashdagi mexanizmlari ilmiy-nazariy nuqtai nazardan tahlil etiladi. Davlat xizmatlari nafaqat boshqaruvning samaradorligini oshiruvchi vosita, balki fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro aloqadorlikda ijtimoiy barqarorlikning kafolati sifatida ham namoyon bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** Davlat xizmatlari, manfaatlar uyg'unligi, ijtimoiy taraqqiyot, boshqaruv samaradorligi, fuqarolik jamiyati, institutsional asoslar, shaffoflik, innovatsion yondashuvlar.

#### ГОСУДАРСТВЕННЫЕ УСЛУГИ: ГАРМОНИЯ ИНТЕРЕСОВ И СОЦИАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ

Аннотация

В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируется роль системы государственных услуг в процессе социального развития, её эффективность и механизмы обеспечения гармонии интересов. Государственные услуги проявляются не только как средство повышения эффективности управления, но и как гарантия социальной стабильности во взаимодействии с институтами гражданского общества.

**Ключевые слова:** государственные услуги, гармония интересов, социальное развитие, эффективность управления, гражданское общество, институциональные основы, прозрачность, инновационные подходы.

#### PUBLIC SERVICES: HARMONY OF INTERESTS AND SOCIAL DEVELOPMENT

Annotation

This article analyzes, from a scientific and theoretical perspective, the role of the public service system in the process of social development, its effectiveness, and the mechanisms of ensuring the harmony of interests. Public services appear not only as a means of increasing governance efficiency but also as a guarantee of social stability in interaction with civil society institutions.

**Key words:** Public services, harmony of interests, social development, governance efficiency, civil society, institutional foundations, transparency, innovative approaches.

**Kirish.** XXI asr globallashuv jarayonlari, axborot oqimlarining keskin tezlashuvi, iqtisodiy integratsiya va ijtimoiy tizimlarning transformatsiyasi davrida davlat xizmatlari masalasi davlat boshqaruvining eng muhim strategik yo'nalishlaridan biriga aylandi. Davlat xizmatlari tizimi nafaqat boshqaruv mexanizmining samaradorligini ta'minlash vositasi, balki ijtimoiy barqarorlik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosi sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda davlat xizmatlarini takomillashtirish masalasi siyosiy, huquqiy va ijtimoiy fanlarning kesishuv nuqtasida chuqur nazariy izlanishlar talab qiluvchi dolzarb mavzudur. Zero, davlat xizmatlari jamiyatning barcha qatlamlari manfaatlarini uyg'unlashtirish, ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirish hamda davlat va fuqarolar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashning eng muhim vositalaridan biridir. Davlat xizmatlarining mohiyatini anglashda, avvalo, ularning ijtimoiy taraqqiyot jarayonidagi rolga e'tibor qaratish lozim. Ijtimoiy taraqqiyot insoniyat tarixida sivilizatsiya bosqichlarini belgilab kelgan va har bir davlatning siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishini aniqlovchi fundamental jarayon hisoblanadi[1]. Shu ma'noda, davlat xizmatlari tizimining rivojlanganligi, samaradorligi va adolatga asoslanganligi jamiyat taraqqiyotining sifat ko'rsatkichlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Agar davlat xizmatlari jamiyat ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilsa, u holda ijtimoiy taraqqiyot jarayoni tezlashadi, fuqarolar davlatga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlaydi va manfaatlar uyg'unligi tabiiy tarzda qaror topadi. Mazkur mavzuni o'rganishda manfaatlar uyg'unligi kategoriyasi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Manfaatlar uyg'unligi – bu

davlat, jamiyat va shaxs manfaatlarining muvozanatini ta'minlovchi mexanizmlar tizimi bo'lib, u davlat xizmatlari faoliyati samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, manfaatlar uyg'unligi mavjud bo'lmagan jamiyatlarda ijtimoiy tanglik, siyosiy qarama-qarshiliklar va ishonch inqirozi yuzaga keladi. Shu sababli davlat xizmatlari tizimi o'zining institutsional tuzilmalari orqali manfaatlarining muvozanatini ta'minlash va ularni yagona ijtimoiy rivojlanish konsepsiyasi doirasida uyg'unlashtirishga qaratilgan faoliyatni amalga oshiradi. Hozirgi kunda davlat xizmatlarining nazariy va amaliy asoslarini qayta ko'rib chiqish, ularni demokratik qadriyatlar, huquqiy me'yorlar hamda global boshqaruv tamoyillari bilan uyg'unlashtirish jarayoni kuchaymoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat xizmatlari sohasida shaffoflik, hisobdorlik, samaradorlik va inson manfaatlariga yo'naltirilganlik kabi tamoyillarga asoslangan tizimlar ijtimoiy taraqqiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, rivojlangan demokratik davlatlarda davlat xizmatlari nafaqat boshqaruvning institutsional poydevorini mustahkamlash, balki ijtimoiy innovatsiyalarni joriy etish, raqamli texnologiyalar asosida fuqarolarga tezkor va samarali xizmat ko'rsatish orqali jamiyat rivojiga hissa qo'shmoqda[2]. Davlat xizmatlari tizimini o'rganishda tarixiy kontekst ham muhim o'rin tutadi. Chunki davlat xizmatlarining evolyutsiyasi insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq. Qadimgi Sharq davlatlarida, xususan, Bobilda, Misrda, Xitoyda va Hindistonda davlat xizmatlari boshqaruvning markazlashgan tizimi sifatida shakllangan bo'lsa, keyinchalik Yunoniston va Rim davrida davlat xizmatlari huquqiy asoslar bilan

mustahkamlangan. O'rta asrlarda davlat xizmatlari diniy-siyosiy institutlar bilan uyg'unlashib, ijtimoiy boshqaruv mexanizmlarini belgilagan[3]. Yangi davrda esa davlat xizmatlari mustaqil boshqaruv tizimi sifatida shakllanib, XIX–XX asrlarda ilmiy asosda o'rganila boshladi. Ayniqsa, XX asr oxiri va XXI asr boshlarida davlat xizmatlari "yaxshi boshqaruv" (good governance) konsepsiyasi doirasida inson huquqlariga asoslangan faoliyat yo'nalishlarini o'z ichiga oldi. Bugungi kunda O'zbekiston va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun davlat xizmatlarini isloh qilish, ularni zamonaviy boshqaruv mexanizmlariga moslashtirish dolzarb vazifa bo'lib turibdi[4]. Chunki davlat xizmatlari tizimining samaradorligi mamlakatning xalqaro nufuzini oshirish, iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, fuqarolar farovonligini ta'minlash va ijtimoiy adolatni qaror toptirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois O'zbekistonda so'nggi yillarda davlat xizmatlarini tubdan isloh qilish, ularni raqamlashtirish, "bir darcha" tamoyiliga asoslangan xizmatlarni kengaytirish va fuqarolar bilan bevosita muloqot mexanizmlarini takomillashtirish jarayoni jadallashdi. Bu islohotlar natijasida fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchi oshib bormoqda, manfaatlar uyg'unligi yanada mustahkamlanmoqda hamda ijtimoiy taraqqiyot uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Ilmiy jihatdan yondashilsa, davlat xizmatlari tizimi ko'p omilli hodisa sifatida baholanishi lozim. Bir tomondan, u huquqiy-institutsional asoslar orqali tartibga solinadi, ikkinchi tomondan, siyosiy jarayonlarning bir qismi sifatida faoliyat yuritadi, uchinchi tomondan esa, ijtimoiy munosabatlarning dinamikasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi[5]. Shu sababli davlat xizmatlari masalasini o'rganish multidisiplinar yondashuvni talab qiladi. Siyosatshunoslik, huquqshunoslik, ijtimoiy fanlar, menejment va iqtisodiyot fanlarining nazariy asoslari davlat xizmatlari tizimini chuqurroq anglash imkonini beradi. Shuningdek, manfaatlar uyg'unligi konsepsiyasini tahlil qilishda normativ va aksiologik yondashuvlarning uyg'unligi zarur. Normativ yondashuv davlat xizmatlarini huquqiy-me'yoriy asoslar orqali tartibga solsa, aksiologik yondashuv uning qadriyatlar tizimi, ijtimoiy adolat va manfaatlarning muvozanatini ta'minlashdagi o'rnini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, davlat xizmatlari tizimini samarali tashkil etish nafaqat huquqiy tartibot, balki ijtimoiy qadriyatlar, etik normalar va fuqarolik mas'uliyati bilan ham bevosita bog'liqdir.

**Adabiyotlar tahlili.** Davlat xizmatlari tizimining manfaatlar uyg'unligi va ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri masalasida xalqaro ilmiy maydonda ko'plab fundamental tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ular orasida M. Bevir va C. Pollittning ishlari alohida e'tiborga loyiqdir. Mazkur olimlar o'z izlanishlarida davlat xizmatlari konsepsiyasining nazariy asoslarini qayta talqin qilib, uning modernizatsiya jarayonlaridagi transformatsiyasini chuqur ilmiy asoslab beradilar. Xususan, Bevirning "Governance: A Very Short Introduction" nomli asarida davlat xizmatlari tizimining "yaxshi boshqaruv" paradigmasi bilan uyg'unligi va manfaatlar muvozanatini ta'minlashdagi roli konseptual asosda yoritilgan[6]. Olimning ta'kidlashicha, zamonaviy davlat xizmatlari nafaqat boshqaruvning texnik mexanizmi, balki jamiyatdagi turli manfaatlarini uyg'unlashtiruvchi sotsiopolitik institut sifatida ham qaralishi lozim. Bu yondashuv davlat xizmatlari tizimini shunchaki ma'muriy boshqaruv jarayoni emas, balki ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning tarkibiy qismi sifatida talqin qilishga imkon beradi. C. Pollitt esa "Public Management Reform: A Comparative Analysis" asarida davlat xizmatlari sohasidagi islohotlarni qiyosiy tahlil qilib, ularning ijtimoiy taraqqiyot jarayoniga ta'sirini chuqur o'rganadi[7]. Olimning ilmiy xulosalariga ko'ra, davlat xizmatlarining samaradorligini oshirish uchun manfaatlar uyg'unligiga erishish muhim bo'lib, bu jarayonda shaffoflik, hisobdorlik va fuqarolarga xizmat

ko'rsatishda tenglik tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Pollittning tadqiqotlari, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat xizmatlari tizimining demokratik qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy bog'liqligini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Mazkur ikki olimning qarashlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, davlat xizmatlari tizimi nafaqat ma'muriy jarayon, balki keng ko'lamli ijtimoiy-madaniy va siyosiy hodisa sifatida baholanishi lozim. Bevir davlat xizmatlarini konseptual va nazariy jihatdan "yaxshi boshqaruv" paradigmasi bilan bog'lasa, Pollitt uni amaliy va qiyosiy tahlillar orqali ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy aloqada o'rganadi. Har ikki yondashuv bir-birini to'ldirib, davlat xizmatlari tizimining manfaatlar uyg'unligi va ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni va ahamiyatini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Shu tariqa, xalqaro adabiyotlar tahlili davlat xizmatlari tizimini ilmiy asoslashda keng nazariy va amaliy paydevor yaratadi.

**Metodologik qism.** Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida davlat xizmatlari tizimining manfaatlar uyg'unligi va ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni hamda ahamiyatini tadqiq etishda kompleks yondashuvdan foydalanildi, chunki mazkur masala ijtimoiy fanlar kesishgan nuqtada ko'p qirrali va ko'p omilli hodisa sifatida namoyon bo'ladi; shu bois maqolada, bir tomondan, tarixiy-genetik metod orqali davlat xizmatlarining evolyutsion rivojlanish bosqichlari, ularning turli davrlarda jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashuv mexanizmlari tahlil qilindi, ikkinchi tomondan, qiyosiy-huquqiy metod yordamida xalqaro tajribalar va milliy amaliyotlar o'rtasidagi o'xshashlik hamda tafovutlar aniqlanib, ular asosida umumlashtirilgan nazariy xulosalar chiqarildi; shu bilan birga, tizimli yondashuv metodologiyasi doirasida davlat xizmatlari manfaatlar uyg'unligini ta'minlovchi ijtimoiy, siyosiy va huquqiy omillar bir butunlikda ko'rib chiqilib, ularning uzviy aloqadorligi tahlil qilindi, shuningdek, sotsiologik kuzatish va hujjatlar tahlili metodlari orqali amaliy ma'lumotlar qayta ishlanib, nazariy qarashlar bilan bog'landi; natijada ushbu maqolada nazariy-normativ, aksiologik va amaliy-metodik yondashuvlarning uyg'unligidan kelib chiqib, davlat xizmatlari tizimining ijtimoiy taraqqiyotdagi samaradorligini baholash imkoniyati vujudga keltirildi.

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat xizmatlari tizimi manfaatlar uyg'unligini ta'minlash va ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtirishda hal qiluvchi o'rin tutadi, chunki u, birinchidan, davlat va fuqarolar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash orqali jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni shakllantiradi, ikkinchidan, manfaatlarning normativ-huquqiy asosda muvozanatlashuvi natijasida fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshiradi, uchinchidan, davlat xizmatlarida shaffoflik, hisobdorlik va raqamli texnologiyalarning keng qo'llanishi natijasida boshqaruv samaradorligi yuqori darajaga ko'tariladi, to'rtinchidan, xalqaro tajribalar bilan uyg'unlashuv asosida milliy boshqaruv tizimida innovatsion model va mexanizmlarning shakllanishiga zamin yaratiladi, natijada davlat xizmatlari ijtimoiy taraqqiyotning asosiy drayveriga aylanib, manfaatlar uyg'unligi prinsipi orqali davlat, jamiyat va shaxs o'rtasidagi hamkorlikni yangi sifat bosqichiga olib chiqadi.

**Muhokama.** Davlat xizmatlari tizimi manfaatlar uyg'unligi va ijtimoiy taraqqiyotda qanday rol o'ynashi masalasida xalqaro ilmiy maydonda bir-biridan farqli qarashlar mavjud bo'lib, ular ko'pincha turli nazariy maktablarning yondashuvlarini ifodalaydi. Jumladan, ingliz tadqiqotchisi Mark Bevir va gollandiyalik olim Geert Bouckaert o'rtasidagi polemikani ushbu jarayonning dolzarbligini yoritishda alohida qayd etish mumkin. Bevir o'zining "Governance: A Very Short Introduction" asarida davlat xizmatlarini zamonaviy boshqaruv paradigmalar bilan bog'lab, ularni jamiyatdagi manfaatlarini uyg'unlashtiruvchi va

ijtimoiy adolatni ta'minlovchi konseptual mexanizm sifatida talqin etadi[8]. Uning fikricha, davlat xizmatlari nafaqat boshqaruvning texnik vositasi, balki ijtimoiy taraqqiyotning intellektual va aksiologik asosi bo'lib, u orqali davlat va fuqarolar o'rtasida ishonch kontrakti shakllanadi. Bevirning nazariyasiga ko'ra, agar davlat xizmatlari tizimi shaffoflik va hisobdorlik tamoyillariga asoslangan bo'lsa, u holda manfaatlar uyg'unligi tabiiy ravishda ta'minlanadi va ijtimoiy taraqqiyot barqaror shaklda rivojlanadi. Biroq Bouckaert bu nuqtai nazarni to'liq qo'llab-quvvatlamaydi[9]. U o'zining "Public Management Reform: A Comparative Analysis" nomli asarida davlat xizmatlari tizimining samaradorligi faqat nazariy tamoyillarga asoslanib emas, balki iqtisodiy resurslar, institutsional imkoniyatlar va boshqaruv madaniyatiga ham bevosita bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Bouckaertning qarashiga ko'ra, manfaatlar uyg'unligi konsepsiyasi ideal model sifatida qadrlanadi, biroq amaliyotda turli manfaatlar to'qnashuvi muqarrar ravishda yuzaga keladi[10]. Shu bois, davlat xizmatlari tizimida faqat shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish yetarli emas, balki manfaatlarni muvozanatlashning pragmatik mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni real sharoitlarda qo'llash zarur. Bevir va Bouckaertning polemikasi shuni ko'rsatadiki, davlat xizmatlari tizimining ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri nazariy va amaliy jihatdan turlicha talqin qilinadi. Bevir davlat xizmatlarini normativ-aksiologik paradigma asosida baholab, ularni jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi g'oya va qadriyatlar tizimi sifatida ko'rsa, Bouckaert amaliy tajribaga urg'u berib, davlat xizmatlari tizimi iqtisodiy imkoniyatlar, boshqaruvning institutsional sifati va siyosiy madaniyat bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi. Bu bahsmunozara shuni anglatadiki, davlat xizmatlari tizimida manfaatlar uyg'unligini ta'minlash uchun nafaqat nazariy konsepsiyalar, balki amaliy mexanizmlar ham muhimdir.

Nazariya va amaliyot uyg'unlashgandagina davlat xizmatlari tizimi ijtimoiy taraqqiyotning uzluksiz va barqaror jarayonini kafolatlay oladi. Demakki, Bevirning konseptual yondashuvi va Bouckaertning pragmatik qarashlarini integratsiyalash davlat xizmatlari tizimini yanada samarali va kompleks model sifatida shakllantirish imkonini beradi.

**Xulosa.** Ushbu nazariy va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlat xizmatlari tizimi manfaatlar uyg'unligini ta'minlash va ijtimoiy taraqqiyot jarayonini jadallashtirishda strategik ahamiyat kasb etadi. Davlat, jamiyat va shaxs manfaatlarining muvozanatlashuvi faqatgina huquqiy-me'yoriy tartibotlar orqali emas, balki ijtimoiy qadriyatlar, shaffoflik, hisobdorlik va boshqaruvning samaradorligi tamoyillari orqali ham ta'minlanadi. Xalqaro ilmiy qarashlar davlat xizmatlarini "yaxshi boshqaruv" paradigmasi, iqtisodiy resurslar, institutsional imkoniyatlar hamda boshqaruv madaniyati bilan uzviy bog'liq holda talqin etilishini ko'rsatmoqda. Shu bois, davlat xizmatlarini isloh qilishda nazariy konsepsiyalar va amaliy mexanizmlarning integratsiyasi hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston tajribasi ham shuni anglatadiki, davlat xizmatlarini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish orqali manfaatlar uyg'unligi yanada mustahkamlanmoqda, fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchi ortmoqda va ijtimoiy taraqqiyotning barqaror asoslari yaratilmoqda. Demakki, davlat xizmatlari tizimi nafaqat boshqaruvning texnik qismi, balki jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligi va taraqqiyotining poydevori sifatida qaralishi lozim. Mazkur tadqiqotning ilmiy xulosalari shundan iboratki, davlat xizmatlari manfaatlar uyg'unligini ta'minlovchi va ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtiruvchi universal mexanizm sifatida hozirgi zamon boshqaruv tizimida tobora ko'proq strategik ahamiyat kasb etmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Odiljonovich FM M., S. N. Davlat xizmatlarini rivojlantirishda sun'iy intellektning o'rni //Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2024. – C. 118-123.
2. Еврашбаев, III. (2025). O'zbekiston sharoitida uzluksiz ta'lim tizimi orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish. Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами, 1(1), 314-316.
3. Muzaffar o'g'li E. X. Davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi: e-gov tizimi va aholiga qulayliklar //«за наивысшие заслуги». – 2024. – Т. 1. – №. 1.
4. Muruvvat, A., & Shohbozbek, E. (2025). O'zbekistonda ma'naviy va ahvoqiy qadriyatlarda maktabgacha ta'limning roli. Global Science Review, 3(2), 246-253.
5. Хабибуллаева Д. Давлат хизматлирин кўрсатишда инсон ҳуқуқларини таъминлаш механизмлари //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2025. – Т. 4. – №. 5. – С. 105-108.
6. Atxamjonovna, B. D., & Shohbozbek, E. (2025). Respublikamizda maktabgacha ta'limda yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish. Global Science Review, 4(5), 221-228.
7. Нишанов А., Саидрасулов III. Электрон давлат хизматлари //digital transformation and artificial intelligence. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 112-119.
8. Abdusattarovna, O. R. X., & Shohbozbek, E. (2025). Ijtimoiy falsafada zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida sog'lom turmush tarzini shakllantirish. Global Science Review, 4(5), 175-182.
9. Эркинов И. Э. Ў. Давлат хизматлари кўрсатиш тизимини ислоҳ қилиш ва унинг ўзига хос хусусиятлари //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 700-708.
10. Diloram, M., & Shohbozbek, E. (2025). O'zbekistonda yoshlarning ma'naviy dunyo qarashini rivojlantirishning pedagogik asoslari. Global Science Review, 4(5), 207-215.